**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

| “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi | | |
|---|---|---|
| **№** | **Amaliy loyiha mavzusi** | **Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija** |
| | Texnikumlarning o‘quv amaliyotlari (modul amaliy mashg‘ulotlari)da foydalaniladigan xomashyo materiallari me’yorlarini ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqish  | **Tadqiqotning shakli:** Texnikumlarning o‘quv amaliyotlari (modul amaliy mashg‘ulotlari)da foydalaniladigan xomashyo materiallari me’yorlarini ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.<br>**Ilmiy-tadqiqot natijalari:**<br>- texnikumlarda amaliy kasbiy ta’limni innovatsion tashkil etish jarayonlari mazmuni modul amaliy mashg‘ulotlarida foydalaniladigan xomashyo materiallari bilan ta’minlash orqali o‘quv amaliyotlarining samaradorligini oshirish asosida takomillashtiriladi;<br>- texnikumlarda o‘qitilayotgan kasb va mutaxassisliklarning amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv amaliyoti dasturlarining mazmunan muvofiqligi ilmiy va qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi va amaliy kasbiy ta’lim mazmunini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi;<br>- o‘quvchilarning kasbiy malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yetarli bo‘lgan o‘quv amaliyotlarida foydalaniladigan xomashyo materiallarining optimal me’yorlari ilmiy yondoshuvlar asosida ishlab chiqiladi;<br>- texnikumlarda kasb va mutaxassisliklar kesimida o‘quv amaliyotlari (modul amaliy mashg‘ulotlari)da o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan xomashyo materiallari me’yorlari hamda xomashyo bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom ishlab chiqiladi;<br>- texnikumlarda o‘quv amaliyotlarida xomashyo materiallaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma yaratiladi;<br>- xomashyo materiallari me’yorlari davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish:** Tadqiqot natijalari Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish:** Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. |
| **Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari** | | |

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo‘ljallangan bo‘lishi shart***